

PAPER

SAYFI SAROYINING ILMIY –ADABIY MEROSI

Tursunaliyeva Ominaxon^{1,*} and Ne' matIllyayeva Mohlaroy²

¹Qo 'qon universiteti Andijon filiali talabasi and ²Qo 'qon Universiteti Andijon Filiali talabasi

* Mohlaroy1@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizning yorqin siymalaridan Sayfi Saroyining hayoti ijodi va bizgacha yetib kelgan asarlari “Gulustoni bit-turkiy”, “Guliston”, “Suhayl va Guldursun” haqida ma’lumot berilgan.

Key words: Sayfi Saroy, “Gulustoni -bit turkiy”, “Guliston”, Sa’diy, erkin tarjima, Oltin O‘rda, Saroy shahri.

Kirish

Mumtoz adabiyotimizning atoqli vakillaridan biri Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod qilgan. Manbalarga ko‘ra shoirning 1321-yil Xorazm yaqinidagi Qamshil (Sarqamish) qishlog‘ida hunarmand-quloq oilasida tug‘ilib, urushlar tufayli Sayfi Saroyi dastlab Eronga, keyin Turkiyaga boradi va umrining oxirlarida Misrga borib, o‘sha joyda taxminan 1396-yilda vafot etganligiga guvoh bo‘lamiz. Uning ismining ma’nosi “qilich” demakdir, zero, bilimlar qilich kabi o‘tkirdir.

Sayfi Saroyining “Saroyi” taxallusidan Oltin O‘rda davlatining poytaxti saroy shahrida ijod qilganligi ma’lumdir va uning ilmiy merosi bizgacha yetib kelmaganligi fanda ma’lum.

O‘zidan oldingi yashab ijod qilgan shoirlar ijodini o‘rganib, Sayfi Saroyi quydagi misralarda ijod maydonini bog‘ulshaniga, shoirlarni esa shu bog‘dagi qushlarga qiyos qilib, ikki guruhga ajratgan:

Jahon shoirlar, ey gulshani bog‘,

Kimki bulbuldurur, so‘zda kimi zog‘.

Sayfi Saroyining adabiy merosidan oz qismi yetib kelgan. Uning bir necha g‘azallari, qasida, qit‘a, ruboiylar (uchta forscha ruboiysi ham), “Suhayl va Guldursun” dostoni va Sa’diy Sheroziyning “Guliston” (1258-yili yozib tugallagan) asarining o‘zbek tiliga qilgan erkin tarjimasi yetib kelgan. Sindbodnoma “ni o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi saqlanib qolmagan”. Ayrim asarlari Istanbulda “Turk adabiyoti namunalari” da berilgan. Qamshil yurt manim tureg‘on elimdi, Bilik g‘urbatg‘a kelturg‘on bilimdi. Kelib o‘ldim Saroyda she‘r fidoyi, Saroyning shoiri, elning gaoyi. Shoirning birinchi misrada o‘z tug‘ilgan yurti Qamishli haqida xabar bermoqda. Nasrullo Davron “Gulustoni bit-turkiy” ni nashriga tayyorlab, o‘zbek kitobxonlarga taqdim etar ekan, bu joyni Xorazm viloyatidagi Sarqamish

qishlog‘i deb taxmin qiladi. Natan Mallayev ham shu fikirda bo‘lgan edi. Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” mavzusi jihatdan xarakterli dostonidir. Bu doston haqida manbalarda ma’lumot yo‘q edi. 1966–1967-yillarda farg‘onalik Kamolxon Sultonov degan kishining qo‘lida saqlangan qo‘lyozma asosida u topildi. Bu qo‘lyozmada Sayfi Saroyiga zamondosh Tug‘lixoja Xorazmiy, Mavlino Is‘hoq Xorazmiy, Mavlono Ahmad Urganjiy kabi shoirlarning bir qancha g‘azallari berilgan. So‘ngida Sayfi Saroyining ikki bayti uch qit‘asi va 82 bayt 164 misradan iborat “Suhayl va Guldursun” dostoni berilgan. Bu liro-epik asardir. Doston asosida dunyoviy ishq yotadi. Sevvida vafodorlik, mardlik tarannum etiladi. Manbalarda qayd etilishicha doston 1394-yilda yozilgan. Dostonning qisqacha sujeti shunday: Amir Temur Urganchga hujim qiladi. Katta kishi asr olinadi. Ular orasida Suhayl ham bo‘ladi. Temurning qizi Guldursun Suhayilni ko‘rib sseviv qoladi. Guldursun qorovullarni mast qilib, Suhayilni baddan ozod qiladi. Ular qochadilar. Sahroda ochlik va suvsizlikdan Guldursun holsizlanib qoladi. Uzoq qishloqqa suv izlab ketgan Suhayl qaytib kelinganda Guldursun vafot etgan bo‘ladi. Dahshatga tushgan Suhayl shunday qarorga keladi. Menga yaxshi bu kun yor birla o‘lmak, Na lozim g‘am bilan dunyoda qolmak. U o‘ziga tig‘ sanchadi va halok bo‘ladi. SHamol bo‘lib ularni jasadini qumlar bilan ko‘mad.

Tahlil va natijalar

“Gulustoni bit-turkiy” ning ushbu qo‘lyozmasining oxirgi betida asarning yozib tugallangan sanasi keltirilgan. Unda “Guliston” ning tarjimasi hijriy 793-yilning shavvol oyi, milodiy hisobda 1391-yilning avgust oyiga to‘g‘ri keladi. O‘sha vaqtda Sayfi Saryi taxminan 70 yoshda bo‘lgan. Sa’diy Sheroziy “Guliston”

asarini Sayfi Saroyidan keyin Ogahiy va Mulla Murod xo'ja ham tarjima qilgan. "Gulistoni bit -turkiy" kitobining tarkibiy tuuzilishi Sa'diyning "Guliston" dan farq qilmaydi. Ushbu ikki asar ham sakkiz bobdan tashkil topgan.

Quyda "Gulistoni bit -turkey" ning boblarini keltiramiz. 1-bob. Salotin siyrati ichinda turur. 2-bob. Fuqaro axloqi ichinda turur. 3-bob. Qanoat fazilati ichinda turur. 4-bob. Sukut foydasi ichinda turur. 5-bob. Ishq dag' I yigitlik sifati ichinda turur. 6-bob. Qgri-likdan zaiflik ichinda turur. 7-bob. Tarbiyat ta' siri ichinda turur. 8-bob. Suhbat adablari ichinda turur.

O'tgan asrning 60- yillarida Qo'qon shahri yaqinidan Sayfi Saroyining "Yodgornoma" asari topiladi. Bu asar "Suhayl va Gul-dursun" nomi bilan shoir ijodidan o'tir oladi.

Adabiyotshunos olimlar Sayfi Saroyining she'riyatidagi ma'no - mohiyatidan kelib chiqib, shunday yuqori saviyali shoirlarning devoni bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. Ammo hozircha bizga devob tartib berganligi haqida ma'lumotlar yetib kelmagan. Izlanishlarimiz natijasida Sayfi Saroyining ilmiy merosining bugungi kunda ham nafaqat yurtimizda, balki, Turkiyada ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib, Sayfi Saroyi ijodini o'trganish orqali Sa'diy Sheroziy singari bugun so'z san'atkorlari asarlariga yaqindan oshno bo'lamiz. Shoir ijodining badiiy va didaktik jihatlari tahlil qilish esa shoir ijod qilgan davr va adabiy muhit haqida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

LITERATURE

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI: (Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2014). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.
5. O'G' Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMURUD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiri and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.
10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 11, 2, 18-20, 2024,
11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION, Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 28, 1, 230-233, 2024,
12. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. -P. 6091-6101.
13. Abdullaeva, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.
14. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.